

Surxondaryoda tadbirkorlar bilan ochiq muloqot: kimyo sanoati korxonalari faoliyati o'rganildi

// 07.08.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/surxondaryoda-tadbirkorlar-bilan-ochiq-muloqot-kimyo-sanoati>





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan ochiq muloqoti arafasida "O'zkiyosanoat" AJ mas'ullari tomonidan hududlarda biznes vakillari bilan bevosita uchrashuvlar davom etmoqda.

Navbatdagi uchrashuv Surxondaryo viloyatida tashkil etilib, unda kimyo sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyati o'rganildi hamda tadbirkorlarning taklif va muammolari tinglandi.

Tashrif doirasida Muzrabot tumanida joylashgan **"Surxon KSP-Grand" MCHJning qamish qirindisidan KSP (qurilish uchun yog'och-strujkali plita)** mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, yillik 150 ming kub metr quvvatga ega ishlab chiqarish majmuasi faoliyati bilan tanishildi.



O'rganishlar davomida korxona tomonidan Termiz tumanida yillik 30 ming kub metr hamda Muzrabot tumanida yillik 150 ming kub metr quvvatli KSP qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani ma'lum qilindi.

Shuningdek, korxona tomonidan istiqbolda formalin asosidagi boshqa turdagi smolalar, xususan fenol-formalin smolalarini ishlab chiqarish ham rejalashtirilgan.

Uchrashularda tadbirkorlar tomonidan bildirilgan taklif va muammolar yuzasidan mas'ullar tomonidan tegishli tavsiyalar berildi hamda ularni amalda hal etish bo'yicha manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borilishi qayd etildi.